

OILADA BOLALARINI TARBIYALASHDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING O'RNI

**Tojiquulova Zaxro Baxrombek qizi
JDPU Maktabgacha ta'lif metodikasi kafedrasi talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada bolalarni tarbiyalashda, ularni rivojlanishi, ulg‘ayishi, har tomonlama komil inson bo‘lib voyaga yetishida ma’naviy qadriyatlarning o’rni haqida bayon etilgan.

Аннотации: В данной статье описывается роль духовных ценностей в воспитании детей в семье, их развитии, росте, становлении во всех отношениях совершенного человека.

Annotation: This article describes the role of spiritual values in the upbringing of children in the family, their development, growth, and the development of a perfect person in all respects.

Kalit so’zlar: Oila, ma’naviy qadriyat, bola tarbiyasi, odob-axloq, sog’lom bola, komil inson, oilaviy munosabatlar, shaxs kamoloti, aql-idrok, qobiliyat.

Ключевые слова: Семья, нравственные ценности, воспитание ребенка, нравы, здоровый ребенок, совершенный человек, семейные отношения, развитие личности, интеллект, способности.

Keywords: Family, moral value, child upbringing, manners, healthy child, perfect person, family relations, personality development, intelligence, ability.

“Bola tarbiyasi va uni yetuk shaxs sifatida shakllanishida oilaning roli nihoyatda kattadir. Oilada bolaning aqliy faoliyati kamol topadi, dunyoqarashi, tafakkuri shakllanadi, kishilarga nisbatan mehr-oqibat hissi tarbiyalanadi. Bolaning bilimi, qobiliyati va malakalarining shakllanishi aynan oila va oilaviy tarbiyaga bog’liqdir” –
Sh.Mirziyoyev.

Mamlakatimiz ravnaqi bugungi yosh avlodni har tomonlama jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, komil, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas’uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir. Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilani roli katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham oilada sog‘lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umum davlat ahamiyatga molik masaladir. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o‘zgarishlar, yani undagi yetuk va kamchiliklar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o‘z aksini topadi. Shunga ko‘ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muammo bo‘lib kelgan.

Farzandini har tomonlama kamol topib ulg’aytirish, haqiqiy inson qilib tarbiyalash har bir ota-onaning ezgu niyatidir. Chunki aqlan va axloqan barkamol bo‘lgan kishi ona yurti oldidagi xizmatlari uchun doimo xalq orasida hurmat e’tiborda bo‘lgan va e’zozlangan. Shu bois o‘zbeklar insoniylik fazilatlari poydevorining faqatgina oilada qo’yilishini, ya’ni odob-axloqning avvali oiladan boshlanishini azal-azaldan sezishgan va oila tarbiyasiga alohida e’tibor bilan qarashgan.

Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati balki Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo’rg’on hisoblangan. O‘zbek oilalarining serfarzandlik, serildizlik, xususiyatlari qadim – qadimdan va hozir boshqa millat kishilarida ham hayrat, ham hurmat uyg’otgan xususiyatdir. Oila – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, keljak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i.

Sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-onas shug‘illanishi kerak, degan hulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e’tibor bergenlar.

Rizouddin ibn Faxruddinning “Oila” nomli risolasida bola tarbiyasi yomon niyat va qo‘pollik bilan emas, balki sabr toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, shavqatu sezgirlik bilan bo‘lishi kerak. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go‘dakni nazoratsiz tutish ulug‘ hatolikdir¹.

Farobiyning ta’lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy-axloqiy tarbiyada alohida e’tibor berganligi ko’rinib turibdi, uning e’tiqodicha bilim, ma’rifat, albatta yaxshi ahloq bilan bezamog’i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo’lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida oilada bolani tarbiyalash ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir.

Jaloliddin Davoniylar ota – onaning bolani tarbiyalashdagi axamiyatiga keng to’xtalgandi. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq – odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko’maklashishi ilm – fan va kasb – hunar egallashining moddiy asosi bo’lmishoziq – ovqat, kiyim – kechak, kerakli buyum va jixozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko’rsatishi kerak.

Sharq muntoz adabiyotining buyuk namayondalaridan biri Muslixiddin Sadi Sherziy oila bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U ma’suliyatli tarbiyachidir. Ota o’z bolalarini tarbiyalashi, o’qitishi, hunarga o’rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak.

Oiladagi bola tarbiyasida ob’ektiv va sub’ektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta’minti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila budgetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog‘lom muhitning barqarorligi va hokazolar ob’ektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar, oila a’zolarining ma’lumot darajasi hamda fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komilligi, oilaviy hayotni tartibga solish, hamkorlik, birlik

¹ Oila – Rizouddin ibn Faxruddin. Mehnat nashryoti. 1991 yil.

tamoyillariga tayanish, ularning qiziqish va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblik kabi tushunchalar sub’ektiv omillar sanaladi.

Oilada aqlan yetuk, barkamol bolaning dunyoga kelishi, sog‘lom va ahil oila mehnatining yuksak samarasi hisoblanib, oilada mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat, yuksak axloqiy-ma’naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish har birimizning vazifamizdir. Ushbu vazifani bajarishda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan – avlodga o‘tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o‘zining milliy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”², – deb e’tirof etdilar.

Qadriyatlar xalqimizning bebafo boyligi sifatida madaniy-ma’rifiy hodisalar, urf-odatlar, an’analar zamirida inson qadr-qimmatining oshishiga xizmat qiladi. Oilada bolaga salomlashishdan tortib to‘g‘ri ovqatlanish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, hurmat-izzat, jamoatchilik ichida o‘zini tutish singari ma’naviy-ma’rifiy, yurish-turish bilan bog‘liq ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar singdirib boriladi. Bola o‘zini, o‘zligini anglash sari qadam qo‘yganidan unga g‘amxo‘rlik qilayotgan ota-onalarini, yaqinlarini, tevarak-atrofni tanishni, ularning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zlashtirishni boshlaydi. O‘zbek oilalariga xos bo‘lgan halollik, mehnatsevarlik, sadoqat,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi nitqi.

samimiyat, ishonch, vatanni sevmoqlik,adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onadan farzandga bevosita singdiriladi. Urf-odat va an’analarimiz, madaniyatimizdan bahramand bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimizning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko‘mak berish, so‘ngra esa o‘z oilalari uchun qayg‘urish hissi singib boradi³.

O‘zbek oilasining o‘ziga xos ma’naviy qadriyatlardan biri oilada yoshi ulug‘ qariyalar – bobo va buvilarning yuksak mavqe va martabaga egaligi bo‘lib, ular hamisha izzat-ikrom qilinadi, barcha masalalarda ular bilan maslahatlashib, so‘ng ish boshlashga amal qilinadi. O‘zbek oilasiga xos mazkur tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosning qanday o‘rin tutishi, salmog‘i, ahamiyati xususida asosliroq fikr yuritish imkoniyati paydo bo‘ladi. Oilada otaning mavqeyi balandligi, ona ham o‘zining haq-huquqlariga egaligi, farzandlarning ota-onani hurmat qilishi ham ko‘p yillar davomida ota-bobolarimiz qalbiga singib ketgan ushbu qadriyatlarni farzandlarimizga yanada chuqurroq o’rgatishimizni zamon talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan hozirgi sharoitda oilada bolalarni tarbiyalashda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni har qachongidan ham ortib bormoqda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojiga va uning negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi qudratli omildir. Shunday ekan, oilada farzandlarimiz aqlan, ma’nan hamda jismonan sog‘lom bo‘lib balog‘at sari borishlarida, ibratli dovondan o‘tishilarida to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatguvchi bir mayoq bo‘laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxat

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi nitqi.

³ Egamberdiyeva N.M. “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.

2. Oila – Rizouuddin ibn Faxruddin. Mehnat nashryoti.1991 yil.
3. Egamberdiyeva N.M. “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.
4. Musurmanova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
5. Umumiy pedagogika fani bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmua, Toshkent – 2018 yil.